

Surxondaryo viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2026-yil yanvar-may oylari uchun

- I. Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Surxondaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Surxondaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2026-yilning 1-iyun holatiga ko'ra, Viloyatda 3154 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 797 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 25,3 %) boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 689 tasi (21,8 %) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 277 tasi (8,8 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishga, 248 tasi (7,9 %) kiyim ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1-iyun holatiga ko'ra



II. Surxondaryo viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026-yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 7560,9 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,4 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Surxondaryo viloyati	7 560,9	108,4
Termiz shahri	717,3	113,5
<i>tumanlar:</i>		
Angor tumani	247,0	105,1
Bandixon tumani	203,2	119,8
Boysun tumani	118,0	113,4
Denov tumani	654,8	104,2
Jarqo'rg'on tumani	629,3	109,6
Qumqo'rg'on tumani	746,2	115,2
Qiziriq tumani	123,3	112,3
Muzrabot tumani	308,6	108,4
Oltinsoy tumani	159,7	109,5
Sariosiyo tumani	347,4	109,4
Termiz tumani	493,6	125,0
Uzun tumani	261,1	110,3
Sherobod tumani	966,8	115,1
Sho'rchi tumani	383,4	107,3

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Termiz shaharda (1060,3 ming so'm), Bandixon tumanda (949,6 ming so'm), Sherobod tumanida (869,0 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2538,7 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, Viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 106,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, Termiz tumanida (121,5 %) Bandixon tumanida (116,6 %), Sherobod tumanida (113,0 %) , Boysun tumanida (111,2 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-may oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-may oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 6 928,5 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (91,6 %) ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 171,3 mlrd so'm (2,3 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 304,7 mlrd so'm (4,0 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda 156,4 mlrd so'm (2,1 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026-yilning yanvar-may oylarida



III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-may oylarida viloyatda tolali ulyuk- 307,8t (4,3 m. ga), tozalangan paxta yog'i va uning fraktsiyalari – 1010,1t (3,1 m. ga) , shag'al - 176,8 ming t (2,9 m. ga) qattiq holdagi tuz va toza natriy xlorid (osh tuzidan tashqari) - 13,7 ming t (2,0 m.ga), paxta tiviti (lint) - 1,7 t (1,7 m. ga) ko'paygan, shuningdek xom neft (uglevodorodlarning tabiiy aralashmasi), jumladan bitumsimon jinlardan olingan neft-ming -22,0 t (19,5 % ga) , toshko'mir-ming t – 154,4 tonna (23,3% ga) va neft bitumi-13,8 (20,6 % ga) t kamaygan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-may *	2025-yil yanvar-may *	2026-yil yanvar-may
Aroq, ming litr	57,8	3054,0	-
Paxta tolasi, tonna	5343,6	11367,0	15967,4
Paxta tolasidan yigirilgan ip, tonna	12437,0	21789,6	29 334,4
Neft bitumi, ming t	19,6	17,4	13,8
Shag'al, ming t	-	60,5	176,8
Toshko'mir, ming t	207,3	201,4	154,4
Xom neft, ming t	30,2	27,3	22,0
Boshqa paxta chigiti, ming t	5,8	15,8	24,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t	17,0	26,5	32,4
Portlandsement, ming t	351,4	111,7	120,2

**2024-2025-yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 23,1 % (2025-yilning yanvar-may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 123,7 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 41,8 % (2025-yilning yanvar-may oylariga oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 114,7 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2025-yilning yanvar- may oylarida 0,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 1,7 % (0,6 %), o'rta-quyi texnologiyali – 15,2 % (26,7 %), quyi texnologiyali 82,4 % (72,2 %) ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026-yilning yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 116,5 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 1,5 m ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024 yil yanvar-may *	2025-yil yanvar-may *	2026-yil yanvar- may
Elektrenergiya, mln.kvt.s	198,5	230,2	268,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	10,2	8,4	12,8

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 1,5 m. ga, qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlarda 129,7% ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-may *	2025-yil yanvar-may *	2026-yil yanvar-may
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	3,5	10,3	15,6
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	32,0	59,7	70,2
Xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	6,8	16,1	20,5
Qayta foydalanishga yaroqsiz boshqa xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	-	4,1	5,3

**2024-2025-yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 4 413,3 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 58,4 % ni tashkil etdi. 2025-yilning yanvar-may oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 69,5 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarni yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Surxondaryo viloyatidagi faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asosanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

- B** - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash
- C** - Ishlab chiqarish sanoati
- D** - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- E** - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erfbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

J. Mallayev
76 225-65-76 (7510)

Manzil:

